

gii

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI BT va STI YO'NALISHI 4- BOSQICH 402-
GURUH TALABASI

*BEKCHANOVA OZODA
AXMADBOYEVNANING*

«Xalq og'zaki ijodi materiallari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini
ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash» mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo'nalishi: «Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish»
Bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar: dots.Jumaniyozova M

Taqrizchi: VPKQTMOI o'qituvchisi
Otajonova Yu.

Ish ko'rildi va himoya
qilishga ruxsat berildi.
«BTN va M» kafedrasining
2012-yil «__05__» dagi
№_10__ bayonnomasi.
Kafedra mudiri: f.f.n. Ollaberganova S.

Urganch – 2012-yil.

**Mavzu: Xalq og`zaki ijodi materiallari asosida boshlang`ich sinf
o`quvchilarini ma`naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash.**

Reja:

Kirish

I bob

Boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darsligidagi xalq og`zaki ijodi asarlari mundariyasi va ularni o`rganishning nazariy-metodik asoslari.

1.1 Boshlang`ich sinflarda xalq og`zaki ijodi asarlarini o`rganishning nazariy-metodik asoslari.

1.2 Boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darsliklarida berilgan xalq og`zaki ijodi asarlarining mazmun-mundariyasi.

II bob

Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi asarlaridan foydalanish.

2.1 Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma`naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda ertaklardan foydalanish.

2.2 Xalq maqollarini o`qish orqali o`quvchilarda ma`naviy barkamollikni shakllantirish.

2.3 Boshlang`ich sinflarda latifalarni o`rganish orqali o`quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish.

III. Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o`rni va ro`li alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg`or davlatlar darajasiga ko`tarish ularning bilimi, istedodi, jasorati, ma`naviy barkamolligiga bog`liq. Shuning uchun ham Prezidentimiz o`zining barcha asarlari va ma`ruzalarida yoshlar tarbiyasini markaziy o`ringa qo`yish bilan, uni davlat siyosati darajasiga ko`tardi. Bu haqida I.A.Karimov shunday yozadi: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo`lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo`lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etyotgan ekanmiz, bu borada ma`naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.” (I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch.- T.2008-yil, 4 b.)

Darhaqiqat, mustaqillik davrida yoshlar tarbiyasi uchun, ularning qobiliyat va iste`dodlarini ro`yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratildi. 1997-yil avgustda qabul qilingan “Ta`lim to`g`risida” gi Qonunda va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da yoshlarni jismonan baquvvat, ma`naviy jihatdan yuksak, aqliy jihatdan barkamol, ruhiy jihatdan qobilyatli, zamonaviy ilim va kasb-hunarni mukammal egallagan, o`zining shaxsiy fikriga ega vatanparvar, insonparvar va mehnatsevar shaxs qilib tarbiyalash ko`zda tutilgan.

Hozirda ta`lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda va ko`ngil tarbiyasiga, ya`ni inson ma`naviyatini shakillantirishga birlamchi vazifa sifatida yondashish ustuvor bo`lib bormoqda. Binobarin, yosh avlodni yoshligidan ma`naviyatli qilib tarbiyalashga e`tibor etib borilsa, u o`zining katta samarasini beradi. Bu haqda Prezidentimizning O`zbekiston milliy axborot agentligi muxbiri savollariga bergan tubandagi javobi (“Xushyorlikka da`vat”, 1999-yil) e`tiborga loyiq: “Agar biz o`z kuchi, salohiytiga ishonadigan, boqimandalikni or deb biladigan, eng rivojlangan mamlakatlarning ilg`or kishilari

bilan teppa-teng muomala qila oladigan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, bu murakkab, beshavqat hayotning past-u baland, chang-u tor ko`charidan Alloh bergan aql-zakovati bilan to`g`ri yo`lni topa olishga qodir bo`lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirsak, `oylaymanki o`z maqsadimizga to`la erishgan bo`lamiz” (I.A. Karimov. Ozod va obod vatan,erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. - T.8,- T: “O`zbekiston” , 2000, 26- b.)

Yurboshimizning bu fikirlari yosh avlodni boshlang`ich siniflardayoq ma`naviy barkamol inson qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Ma`lumki, boshlang`ich ta`lim insonning bilim va tarbiya olishida poydevor vazufani o`taydi. Boshlang`ich siniflardagi ona tili ta`limi sohasining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e`tiborga olgan holda og`zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o`stirish, ularni shaxs sifstida shakillantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga bo`lgan qiziqishni o`stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobilyatlarini o`stirish hisoblanadi. Bolararni aqliy va nutqiy qobilyatlarini muvaffaqiyatli o`stirish kelgusida fanlarni puxta o`zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, “O`qish va nutq o`stirish” dasturi asosida tashkil qilinadigan boshlangich sinif o`qish darslari o`quvchilarni har tomonlama rivojlangan ma`naviyatli inson qilib tarbiyalashda alohida o`rin tutadi.

Boshlangich sinif “O`qish kitobi “ darslarida turli badiiy va ilmiy ommabop asarlardan hamda xalq og`zaki ijodidan namunalar berilgan. Jumladan, darsliklar orqali boshlang`ich sinif o`quvchilari A. Obidjon, A. Oripov ,X. Nazir, A.Avloniy, M. A`zam, X. To`xtaboyev, M. Raxnon, G`ayratiy, S. Anorboyev, S. Jo`ra, G`. G`ulom, Oybek, Safo Ochil, M. Murodov kabi bir qator o`zbek adabiyoti vakillari, shoir va yozuvchilarining asarlari bilan hamda xalq og`zaki ijodiga mansub asarlar: ertak, maqol, topishmoq, latifa, dostonlar bilan yaqindan tanishdilar.

Boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darsligida berilgan xalq og`zaki ijodiga mansub materiallarni o`qish jarayonida o`quvchilar nafaqat o`zbek xalqining o`lmas ma`naviyat buloqlaridan bahramand bo`ladilar, balki o`zlari ham sevib o`qigan ertak- dostonlardagi qahramonlar kabi vatanparvar, mard, jasur, to`g`riso`z, mehnatsevar, kamtar va mehribon insonlar bo`lib yetishishni orzu

qiladilar. Ana shunday kishilar haqida tasavvur hosil qiladilar; ezgulikni hayotdagi o`rni bilib oladilar. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishiga yordam beradi.

Oqish darslarida bolalarni xalq ogzaki ijodi asarlari vositasida estetik tarbiyalashga ham alohida ahamiyat beriladi. O`qitilayotgan matn va uni o`rgatish metodlari bolaning estetik qabul qilish qobiliyatini, tabiyat va jamiyatdagi haqiqiy go`zallikni ajrata olish, kishilar hayoti va san`atdagi gozallikni his qilish kabi estetik fazilatlarni rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim. Bularning hammasi boshlangich sinif o`quvchilarni tarbiyalashda hamda ularning ma`naviy dunyosini boyitishda xalq og`zaki ijodi materiallarining alohida o`rni borligini ko`rsatadi. Boshlangich sinif o`quvchilarini ma`naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish yo`llarini ochib berish masalasi hozirgi metodika va pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “Ona tili oqitish metodikasi” darslik va o`quv qo`llanmalarida, boshlang`ich sinif o`qituvchilari uchun mo`ljallangan metodik kitoblarda, ayrim metodik maqolalarda xalq og`zaki ijodi asarlarini o`rganish masalasi o`zining metodik yechimini topgan. Masalan, I.Mirzayevning “Boshlang`ich siniflarda xalq og`zaki ijodini o`rganish” risolasida (Toshkent, “O`qituvchi”,1979), M. Jumaniyozova va Sh. Qalandarovalarning “Boshlangich sinf o`qish darslarida dostonlardan parchalarni o`qish metodikasi” maqolasida ( Tafakkur ziyosi, XXI tom.- Urganch, 2010, 60-63- betlar), Sh. Jabborovning “Xalq og`zaki ijodidan foydalanish” maqolasida (“Boshlangich ta`lim” jurnali, 2011, 2-son 28-29-betlar) va boshqa ishlarni ko`rsatish mumkin. Shu bilan birga, boshlangich sinf o`quvchilarida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni ma`naviyatli inson qilib tarbiyalashga bag`ishlangan ilmiy- metodik maqolalar ham mavjud. Xuysusan, X. To`raqulov va A. Baltayevalarning “Milliy-ma`naviy qadriyatlarni shakllantirish” (“Boshlangich ta`lim” jurnali, 2008, 11-son, 4-bet) N. Vahidovanning “Milliy g`urur ruhida tarbiyalash” (Xalq og`zaki ijodi materiallari asosida) (“Boshlang`ich ta`lim” jurnali, 2009,14-son, 2-3-betlar), Zuhra Ilyos qizining “Ma`naviyati yuksak avlod – Vatan ishonchi.” (“Boshlangich ta`lim” jurnali, 2009, 10-son, 21- bet) nomli

maqolalarida bu masalalar atroflicha o'z aksini topgan. Bulardan ham ko'rinadiki, boshlangich sinf o'quvchilarini ma'naviyatli inson qilib tarbiyalashda xalq og'zakii ijodi namunalaridan foydalanish masalasi monografik holda o'z yechimini topmagan. Bu esa ushbu masala yoritilishining muhim metodik masala ekanligini va bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Shundan kelib chiqib, ushbu ishda quyidagi **vazifalarni** hal qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

---boshlangich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan xalq og'zaki ijodi asarlarining mazmun-mundarijasini ko'rsatish;

---boshlangich sinflarda xalq og'zakii ijodi asarlarini o'rgatishning ilmiy-metodik asoslarini yoritish;

--- xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rganishning ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini ochib berish;

---xalq ertaklari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish yo'llarini belgilash;

---oquvchilarni ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda maqollardan foydalanish yo'llarini ochib berish;

---boshlangich sinflarda latifalarini o'qish orqali o'quvchilarni vatanparvar, mard va jasur, sadoqatli va kamtar, tadbirkor va ziyrak inson ruhida tarbiyalash masalasini yoritib berish;

Tadqiqot obyekti: boshlangich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash yo'llari hisoblanadi.

Tadqidot predmeti: boshlangich sinflarda o'qiladigan xalq og'zakii ijodi asarlari.

Tadqiqot metodlari: analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, pedagogik kuzatish va mavzuga doir mavjud adabiyotlarni tashkil qilish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Boshlangich ta'lim konsepsiyasi", "Boshlangich talim DTS va o'quv dasturi", "Barkamol avlod yili "

Davlat dasturi, Prezidentimizning asarlari hamda ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari; mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar.

I bob

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligidagi xalq og'zaki ijodi asarlari mundarijasi va ularni o'rganishning nazariy-metodik asoslari.

1.1. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rganishning nazariy-metodik asoslari.

O'zbekiston Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarni belgilab berdi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Unda: "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi"-deb ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim Vatanimining kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda mustahkam poydevor ro'lini o'ynaydi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligi ham "O'qish va nutq o'stirish" dasturi Davlat ta'limi standarti talablariga javob beruvchi konsepsiya asosida tuzilgan. Unda g'oyaviy, tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olingan. U o'z navbatida bolaning tevarak atrofdagi voqelikni idrok etishni ko'zda tutadi.

Darsliklarda o'quvchilar sevib o'qiydigan xalq og'zaki ijodi asarlariga ham keng o'rin berilgan. Xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy adabiyotga folklor deyiladi. "Folklor" asli inglizcha so'z bo'lib, "Folk"-xalq, "Lore"-donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, "Xalq donoligi", "Xalq donishmandligi" ma'nolarini anglatadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, o'zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi ijodiy salohiyati, orzu va

intilishlarini aks ettiradi.

Xalq og`zaki ijodi ertak, doston afsona, rivoyat, qo`shiq, lapar, masal, maqol, topishmoq, latifa va naqlarni o`z ichiga oladi. Xalq og`zaki ijodi materiallarida ijtimoiy hodisalar, kurashlar vatanni dushmandan mudofaa qilish, xalqning orzu-umidlari, urf-odatlar, rasm-rusmlari, marosimlari va boshqa turmush hodisalari ifodalanadi.

Boshlang`ich sinf o`quv dasturlari o`qish darslari oldiga o`quvchilarni yaxshi o`qish sifatlariga ega etishdek murakkab vazifani qo`yadi. Bunday vazifalarni to`laroq amalgam oshirishda xalq og`zaki ijodi materiallari katta ahamiyatga ega. O`quvchilar tabiatan maqol, topishmoq va ertaklarni sevadilar, ularni zo`r qiziqish bilan o`qib o`rganadilar. Bundan tashqari xalq og`zaki ijodi qadimdan tarbiya manbai hisoblangan.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari eng avvalo ertaklar bilan tanishadilar. Ma`lumki, ertaklar xalq og`zaki ijodiyotining eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan janrlardan biridir. Ertak atamasi Mahmud Qoshg`ariyning XI asrda yozilgan "Devonu lug`atit turk" asarida "etuk" shaklida uchraydi va biror voqeani og`zaki tarzda hikoya qilish ma`nosini bildiradi.

Hozirgai folkloristik atama sifatida ertak so`zi qabul etilgan bo`lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg`ona ob`ektlarida matal deb yuritiladi.

Ertaklar xalq og`zaki ijodining epik turiga kiradi. Uning o`ziga xos xususiyati-voqeabandligi, biron voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilinishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g`aroyib, jozibali qilib aks ettiradi.

Ertak folklor asari. Shuning uchun ham xalq og`zaki ijodiga xos ijodiy maxsul bo`lib, ko`pchilik tomondan aytilishi, og`zaki yo`l bilan tarqalishi, an`anaviylik, ijodchisining noma`lumligi-anonimlik, bir syujetning xalq orasida bir qancha variantlarda ijro etilishi-ertaklarga xosdir.

Turli davrlarda ertaklar ham turlicha o`garishlarda uchrab kelgan. Shu sababdan ertaklarning g`oyaviy yo`nalishi, kompozitsiyasi, qahramonlarining vazifalari o`zgarib, yangidan-yangi versiyalar yuzaga kelib turadi.

Buning ustiga har bir ertak aytilganda ijroining ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi, turmush voqeligini aks ettira olishi, ertak an'analarini qay darajada bilishi, tarbiyasi, psixologik holatlariga qarab turib yangidan tug'iladiki, natijada bir ertakning o'zi bir necha variantlarda xalq orasida yashab yuradi. Ertaklarning badiiy shakli va poetikasi o'ziga xos bo'ladi. Fantastik uydirmalar, hayot haqiqati bilan aloqador bo'lib, qadimiy tushuncha, urf-odat, marosimlarning o'zlarini o'zida aks ettiradi.

Ertak ijrochiligining xarakterli belgilaridan biri shundaki, hikoya qilinayotgan voqea va hodisalar aytuvchi va tinglovchi tomonidan "Bo'lgan voqea" deb emas, balki, "Muqarrar bo'lmagan hodisalar" deb tushuniladi.

Shuning uchun ham ertaklarda voqea va hodisalarda bo'lib o'tgan o'rni va zamoni nooaniq umumiy tarzda ifodalanadi. Bundan tashqari, ertaklarning zamon va makon e'tibori bilan yuzaga kelgan o'rni ham turlicha. Ularning tili va uslubi farq qiladi. U yoki bu ertak qaysi turga taalluqli ekanini aniqlash uchun diqqat-e'tibor bilan mazmunini va asosiy vazifasini belgilash lozim bo'ladi. Masalan: sehrli ertaklar hamda hayvonlar haqidagi ertaklar bilan ishqiy-sarguzasht tipidagi yoki hajviy ertaklarning mustaqil janr sifatida tashkil topishi ham turli davrlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham har xil davrda yaratilgan va turli xil jamiyat qatlamlari tizimini o'zida saqlagan "Kenja Botir", "Ur to'qmoq", "Chol bilan kampir", "Bo'ri bilan tulki" kabi ertaklarning syujet tarkibi, xarakteri, obrazlar sistemasi, turli va hikoya qilishi uslubiga o'xshash va farqli tomonlar mavjud. Negaki, ertak o'zining taraqqiyoti davomida ba'zi motiv obrazlarni yo'qotishi, yangi-yangi belgilarni qabul qilishi mumkin, ba'zan esa an'anaviy elementlar yangicha talqin etilgan bo'ladi.

Xullas, har bir ertakning xususiyat tarkibi, uning g'oyaviy mazmuni, badiiy vositalari o'ziga xos xususiyatni ko'rsatib turadi. "Zumrad va Qimmat" yoki "Oltin tarvuz" kabilar asosan sehrli ertaklardir. Biroq asosiy qahramonlar qiyofasi, ularning hatti-harakatlari hajviy ertaklarning bosh qahramonlarini eslatadi. Lekin bu ertaklarda hajviy hajviy ertaklarda bo'lganidek aql idrok, tadbirkorlik uchun emas, aksincha, fantastik uydirmalar, asar yechimida hal qiluvchi vazifalarni

o`taydi.

Bu belgi ularni hajviy ertaklardan ajratib turadi. Demak, satira va yumorni faqat hajviy ertaklarga xos belgi deb qaramaslik kerak. Chunki satira va yumor sehrli hayvonlar haqidagi ertaklarda ham mavjud.

Faqat ularning u yoki bu ertaklardagi mazmun darajasi, ishlatish o`rni, maqsad vazifalarini e`tiborga olish kerak. Shundagina u qaysi ertak turiga xos ekanligi ma`lum bo`ldi. Ertaklar o`ziga xos kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, kirish qismi, boshlama tugallanmalar alohida ko`zga tashlanadi.

Kirish qismi avvalo, ertakchining mahoratini ko`rsatadi, qolaversa tinglovchilar diqqatini jamlab, ertak eshitishga hozirlaydi.

Boshlama ertakning dastlabki qismini ta`riflaydi. Ertaklarda an`anaviy boshlama voqeaning qay vaqt bo`lib o`tganini bildirmaydi, noaniq, umumiy tarzda ifodalaydi. "Sizga rost bo`lsin, bizning hayot zamonlarning zamonida, qadimlar ayyomida, bir podshohi zolim bor ekan". Ba`zan boshlama qisqa bo`ladi. "Bir bor ekan, bir yo`q ekan, bir podachi bor ekan". Ba`zan esa u voqelik bilan qo`shilib ketadi.

Ko`rinadiki, boshlama bayonida personajlarning kim ekani, kasb, amal, laqablari ma`lum bo`ladi. Demak, hayot haqiqati bilan bog`liq bo`lib fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g`oya tashuvchi og`zaki hikoyalar ertak deb ataladi.

Ertaklar obrazlar talqini, g`oyaviy mazmuni va konflikti, sujet va kompozitsiyasi, fantastik uydirmaning o`rni va vazifasi hamda tili va uslubiga ko`ra shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklarga bo`linadi.

O`zbek xalq ertakchilari repertuarlarida hayvonlar haqidagi ertaklar anchagina o`rinni tashkil etadi. Hayvonlar haqidagi ertaklar qadim zamonlarda vujudga kelgan bo`lib unda ibtidoiy tuzum davridagi insonning hayoti, mehnati, dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalar ifodalangan.

O`zbek xalq ertakchiligi repertuarida sehrli ertaklar ham katta o`rin egallaydi. Bu xildagi ertaklar sehrli, fantastik uydirmalar asosida qurilganligi bilan

ajralib turadi. Sehrli ertaklarning yuzaga kelishi qadimiy tarixga ega bo`lib, ildizi boshlang`ich jamiyatga borib yetadi.

Sehrli ertaklarning hatti-harakatlari-sehr, jodu, mo`jiza hayoliy obrazlar bilan bog`lanadi. “Semurg`, “Kenja botir” kabi ertaklar zaminida ibtidoiy dunyoqarash-tabiati kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonlarni muqaddas bilib, ularga sig`inish asosiy o`rin tutadi.

Osmonda uchish orzusi “Uchar gilam”, “Yog`och otlar”ni, uzoqni ko`rish istagi esa “Oynai jahon”ni keltirib chiqardi. Sehrli ertaklar ichida alohida ajralib turadigan turkum ertaklar mavjud. Bular qahramonlik tipidagi ertaklar, o`gaylik va kamsitilgan kishilar haqidagi ertaklar va mitti polvonlar haqidagi ertaklar.

Ertaklarda qahramonning aniq xarakteristikasi berilmaydi. Faqat an`anaga aylangan belgilargina ko`rsatiladi. “Qiz o`n to`rt kunlik oydek to`lishgan”, u nihoyatda go`zal, hayoli, iboli, mehnatsevar, yuksak an`ana namunalari jam bo`lgan, idrokli, tadbirkor, oqila qizdir. Har kuni o`tin yorar, osh pishirar, qozon yuvar, uy tozalar ekan. Mazkur sifatlar sarguzasht davomida yana ham oydinlashadi. Qarshi tomon-o`gay ona, aka, kundosh, shum kampir esa zulm va zo`rlilik timsoli sifatida namoyon bo`ladi. Ertakda mavjud tilsim nohaqlik, ayyorlik, qonxo`rlik kabi yaramas illatlarni fosh etib, adolat, mehnatsevarlik, ma`naviy go`zallikni ma`qullaydi.

Botirlar obrazida odob va muomalaning yuksak namunasi, odamiylik, mehnatsevarlik, bonishmandlik, jasurlik va sezgirlik kabi sifatlar barq urib tursa, zolim tekinxo`r kishilar qiyofasida mol-mulk yo`lida har qanday iflos ishlardan qaytmaslik kabi xususiyatlar namoyon bo`ladi.

Ko`rinadiki, ertaklar o`ziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalq og`zaki ijodi janrlaridan ajralib turadi.

Ertaklar olamiga kishi bolalik chog`laridayoq sayohat qiladi, u dastlab hayvonlar haqidagi ertaklarni eshitib, har xil toifa xarakterdagi aqlli va ahmoq, saxiy va qizg`anchiq, zolim va odil odamlar dunyosi bilan tanishadi. Ertaklarda xalq hayoti, uning adolat, haqiqat yo`lidagi orzu-umidlari, yovuz kuchlarga

nisbatan qahr-g`azabi, yaxshilarga bo`lgan mehr-muhabbati tasvirlanadi.

O`quvchilar xalq ertaklarini o`qib chiqqach, o`rtoqlari, aka-ukanva opa-singillariga aytib beradi, muhimi o`quvchi o`zi sevib qolgan ijobiy qahramonlaridan o`rnak olishga, halollikda, to`g`ri so`zlikda, mehnatsevarlikda ularga o`xshashga harakat qiladi. Sal`biy qahramonlardan esa, nafratlanib, o`xshamaslikka harakat qiladi.

Demak, o`quvchilarning ham bilimga qiziqishini oshirishda, ham komil inson qilib tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan xalq og`zaki ijodi janrlaridan biri maqollardir. Maqollar xalq og`zaki ijodining eng ko`p tarqalgan janridir. Maqollar xalqning hayoti, aql-farosati, turmush tajribasi, kurasi, mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilgan, maqollar yengil, ravon va jonli tilda yaratilgan bo`lib, ularda xalqning turmush tajribasida tasdiqlangan chuqur ma`noli fikrlar ixcham obrazli qilib beriladi. Shuning uchun ham maqol bir aytishdayoq yodda qoladi.

Maqollar o`quvchilar og`zaki nutqini o`stiradi, so`z boyligini orttiradi. Maqollar xalqning u yoi bu masala yuzasidan chiqargan hukmini bolalar ongiga yetkazishda o`qituvchiga yordam beruvchi vositalardandir. Xalq maqollarining ma`nosi, tuzilishi va uning shakli bilan o`quvchilarni tanishtirib borish ta`lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. O`qish darslarida maqol matnini to`g`ri va ongli o`qish malakalari beriladi. O`quvchilar mazkur darslarda maqollardagi har bir so`zning ma`nosi va maqolning to`la, mukammal ma`nosini izchil idrok etishga odatlanadilar.

Maqollarni o`rganishda og`zaki bayon etish, suhbat, og`zaki va yozma mashq ishlash metodlaridan unumli foydalaniladi. O`qish darslarida o`rganiladigan maqollar biror mavsum yoki ma`lum bir katta mavzu hamda she`r va hikoyalarning mazmunini ochishga qaratiladi.

Maqollarning mazmuni va tuzulishi taxlil etilar ekan, maqollarning jihatdan keng, tuzulish jihatdan qisqa,umuman hikmatli gap ko`rinishida ekanligi suhbat metodida bayon etiladi. Bu bilan o`quvchilarni ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan maqol

haqidagi mazkur bilimlar asosida ularda ma'naviy sifatlar tarkib topdirilgan. Bu esa, o'quvchilarning aqliy kamoloti va qobiliyatini yanada rivojlantirishga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi.

Xalq dahosining nodir yodgorliklari sifatida asrlar osha yashab kelayotgan doston janri o'zining shakllanish davridan boshlab hozirgacha xalqimizning ma'naviy olamini munavvar qilishda o'ziga xos mashallik vazifasini bajarib olish vositalari paydo bo'lmagan bir paytlarda xalq og'zaki ijodining ro'li nihoyatda katta bo'lganligi o'z-o'zidan ma'lum. Xalq uchun esa ma'naviy oziqlanish hamisha hayotiyehtiyoj bo'lib kelgan.

Hayotda yuz beradigan voqea-hodisalarning nihoyatda rang-barangligi va kishilarning o'zaro munosabatidagi turli-tumanlik asrlar davomida badiiy tafakkur mahsuli o'laroq tug'ulgan asarlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Natijada og'zaki adabiyotning bir janriga mansub bo'lgan asarlari arasida ham tarmoqlanish yuzaga kelgan va dostonlarda ichki tafovutlar paydo bo'la boshlagan. Agar o'zbek dostonchiligiga to'laligicha nazar tashlasak, bu masalada dostonlarning asosan ichki tarmoqqa bo'linganligiga guvoh bo'lamiz. Ularning birinchisi qahramonlik, ikkinchisi ramantik dostonlardir.

Boshlang'ich sinflarning o'qish va nutq o'stirish dasturida folklorning eng yirik va eng murakkab janri bo'lgan dostonlarga ham muayyan o'rin ajratilgan.(2)

Xususan, 3-sinfning "O'qish kitobi"da "Rustamxon" dostonidagi asosiy g'oyani bilmagan holda parchadagi masalani shaxslararo, o'quvchilarda xira tasavvur hosil bo'lishi mumkun.

Hozirgi davrda dars jarayonida yangi ta'lim texnologiyasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyada o'quvchi ta'lim jarayonining o'qituvchi bilan tanish teng huquqqa ega bo'lgan subekktga aylanadi. O'rganilayotgan mavzuni o'qituvchi va o'quvchi birgalikda amalga oshiradi. O'rgatish va o'rganishning bola shaxsiyati uchun ahamiyati yanada yuksaladi.

Ana shu tamoyildan kelib chiqqan holda parchalarni o'rganishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga ilgaridan tanish bo'lgan ertak, rivoyat janrlarini eslatishi

lozim bo`ladi. Bu qisqacha kirish suhbat quyidagicha bo`ladi:

1.Podsholar,Shaxzodalar, malikalar haqida hikoya qiluvchi qanday janrlarni bilasiz?

Bolalar ushbu savolga albatta ertak janrini javob sifatida keltiradilar.Chunki 3-sinfning “O`qish kitobi” da ushbu mavzugacha bo`lgan davrda tarkibida podsho obrazi ishtirok etadigan birqancha ertaklar berilgan. Savolgajavob olingach, ikkinchi savolga o`tiladi.

2.Ertaklarning oxiri qanday tamom bo`lar edi? Bolalar o`z navbatida “Murod-maqsadiga yetibdilar” iborasini javob sifatida keltiradilar. Shundan keyin o`qituvchi dostonlar haqida qisqacha va aniq ma`lumot berishga o`tadi.

Dostonlar o`z obrazlari, tasvirlash usuli jihatidan ertaklarga o`xshab ketadi. Dostonlarda ham ertaklardagidek ko`pchilik hollarda podsho, vazir, malika va shagzodalar hayoti tasvirlanadi. Biroq dostonlarda faqat nasrda emas, balki she`riy parchalar bilan birgalikda voqea bqyon etiladi. Bundan tashqari ertaklarni ertakchigina emas,istagan bir kishi hikoya qilishi mumkin bo`lsa dostonni faqat baxshi ijro etadi.

Ushbu ma`lumotlar bayon etilgandan keyin doston matnini o`qishga o`tish lozim.

Bu jarayonda o`quvchi parchadagi mazmun, undagi she`riy parcha bilan ham tanishib oladi. Bu jarayondan keyin bolalar, albatta, ushbu dostonlarni ijro etgan baxshilar haqida so`rab qolishadi.Shu sababdan ham biz yuqorida dostonning to`la matni bilan o`qituvchi tanish bo`lishi lozimligini ta`kidlab o`tgan edik. O`qituvchi dostonlar haqida ma`lumot berish jarayonida uning ijrochisining musiqani bilishi, musiqa asboblari bittasini chala bilishi lozimligini ham aytishi kerak bo`ladi.Yuqorida bu janrning juda murakkabligini ta`kidlaganimizning sababi ham ana shundadir.

Dostonlar haqida gapirilar ekan, doston, baxshi, do`mbira, dutor, doira, bo`lamon, musiqa singari bir qancha atamalarga duch kelinadi. O`z navbatida o`qituvchi o`sha atamalarning izohini ham bilishi zarur. Xo`sh baxshi, do`mbira, musiqa atamalarini bilish kifoya emasmi; nega yana bir qancha atamalar ko`z

oldimizda namoyon bo'layotir? Hamma gap shundaki; doston kuylash masalasida Xorazmdagi an'analar respublikamizning boshqa joylaridan tubdan farq qiladi. Dostonning nasr, nazm va musiqa bilan uzviy aloqadorligini tushintirmaguncha, ulardan olingan parchalarni tushitirish qiyin. Bu parshalarni tushintirish jarayoni ham ansha murakkab kechadi. Negaki, ularda baxshi tiliga oid leksik birliklar anchani tashkil etadi. Masalan, „ Rustamxon “ dostonida „ ajdarxar” , „qaysar” , „ zo`rabor “ kabi bir qator so`zlar borki ular hozirgi o`quvchi mano jihatdan hazm qila olmaydi . O`sha parchaning o`zida „ ajdaho “ , „ ajdarhar ” kabi bir m'anodagi so`zning ikki shakli uchraydi . Bu holatni o`quvchilarga sheva elementlari tarzida izohlash lozim. Shuningdek, “qaysar” so`zining “botir”, “mard” manolariga ega ekanini; “zo`rabor” so`zining “zo`ravon” emas, balki “kuchli”, “qudratli” kabi manolarga ega ekanligi albatta izohlash kerak bo`ladi. Aks holda hozirgi o`quvchi bu so`zlarni mutlaqo boshqa ma'nolarda tushinishi mumkin. Shu bilan birga, dostonlardan parhalarni o`qish darslarida o`qituvchi uning qahramonlari sifatida o`quvchilarga singdirish orqali ularda barkamollik sifatlarini shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi.

Xalq og`zaki ijodi asarlarining yoshlarimizni ma'naviy yetuk, komil inson qilib tarbiyalashdagi o`rni beqiyos. O`qituvchi xalq og`zaki ijodi materiallarining o`ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilsa, nazariy-ulmiy jihatdan bilimini oshirib borsagina xalq og`zaki ijodi namunalari ta'lim tarbiya bilan bog`lay oladi.

1.2. Boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darsliklarida berilgan xalq og`zaki ijodi asarlarining mazmun-mundariyasi.

Boshlang`ich sinflardagi ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari o`rganilishi lozim bo`lgan materialning mazmuni va tuzilishini belgilaydi.

O`qish dasturini tuzishda g`oyaviy- estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olinadi. O`quv materiallari bolalarga ta'lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo`lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o`z ichiga oladi. O`quvchilarni badiiy, adabiy asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o`qish dasturlarining tub mohiyatini tashkil etadi.

O`tmishda xalqimiz boshidan kechirgan muhim voqea-hodisalar aks ettirilgan asarlarni o`qish orqali o`quvchilarda tarixiy bilimlar shakllana boradi.

Ona yurt daxlsizligi yo`lida ajdodlarimiz olib borgan mardonavor kurashlar tarixi haqida hikoya qilingan asarlar bolalarda vatanga muhabbat tuyg`ularini tarbiyalaydi.

Boshlang`ich ta`lim o`quv dasturidan o`rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o`quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy madaniy - ma`rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo`lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Dasturning vatanga, inson e`tiqodi va ma`naviyatiga bag`ishlangan mavzularini o`rganish o`quvchilarni ma`naviy-axloqiy tuyg`ularni tarbiyalashda alohida o`rin tutadi.

Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimiz haqidagi asarlar milliy g`urur tuyg`ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu jihatdan boshlang`ich sinflarda o`quvchilar “O`qish va nutq o`stirish” dasturi asosida tuzilgan “O`qish kitobi” darsliklari orqali ko`plab xalq og`zaki ijodi asarlaridan namunalar bilan tanishadilar. Bu asarlarni o`qib-o`rganish uchun boshlang`ich sinf o`quv dasturida muayyan vaqt ajratib ko`rsatilgan bo`ladi.

1-sinfdan tortib 4-sinfgacha “O`qish kitobi” darsliklarida xalq og`zaki ijodi alohida bo`lim sifatida ko`rsatilgan va ularni o`rganish uchun muayyan bir soatlar belgilangan.

Xususan, 1-sinf “O`qish kitobi” darsligining “Xalq o`giti – baxt kaliti” bo`limini o`rganish uchun o`quv dasturida 9 soat ajratilgan.

“Xalq o`giti – baxt kaliti” bo`limiga bolalar qalbiga ona allasi bilan kirib kelgan og`zaki ijod namunalari kiritilgan bo`lib, ezgulik, to`g`ri so`zlik, sofdillik, nafosat, do`stlik, o`rtoqlik, ahillik haqida tasavvur hosil qiladi.

O`quvchilarning sinfda va mustaqil o`qishlari lozim bo`lgan asarlar:

1. “Sher va sichqon” ertagi.
2. “Maymun va duradgor” ertagi.
3. “Rostgo`y bola” ertagi.
4. “Laylak keldi - yoz bo`ldi” qo`shigi.

5. Latifalar.

2-sinf “O`qish kitobi” darsligidagi “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” bo`limini o`rganish uchun 13 soat ajratilgan.

Bu bo`lim orqali o`quvchilar ertaklar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshiyu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so`zlab berish, voqealarni rasmda ifodalashga alohida e`tibor qaratiladi.

O`quvchilarning sinfda va mustaqil o`qishlari lozim bo`lgan ertaklari:

1. Quyoshbobo nurlari.
2. Maqtanchoq ayiq.
3. Nima totli?
4. Ertaklar.
5. Mashhur rassom.
6. Baxtli bo`lish osonmas.
7. Ko`ngilchan o`tinchi.
8. Uzun terak.
9. O`jar baliqchi.
10. Dono dehqonbobo.
11. Quyuncha va ayyor tulki.
12. O`tinchi yigit bilan sher.
13. Urto`qmoq.
14. Oltin tuyoqli kiyik.
15. Oq ko`ngil chol va xasis boy.
16. Ko`p ko`rgan ko`p biladi.

3-sinf “O`qish kitobi” darsligidagi “Xalq og`zaki ijodi” bo`limini o`rganish uchun 17 soat ajratilgan. Bu bo`limda xalq og`zaki ijodiga oid qo`shiq, ertak, masal, maqol, latifa, topishmoqlar kiritilgan. Ular orqali o`quvchilarga xalqning orzu – umidlari, do`stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, fazilatlari ulug`lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishi uqtiriladi. O`quvchilar qo`shiq bilan tanishadilar. “Botir mergan va chaqimchi”, “Halollik”, “Donishmand yigit” kabi o`zbek xalq ertaklarini o`qiydilar. Shuningdek, “Qaysar buzoqcha”, “Chumoli va tipratikan” masallarini o`rganadilar. Maqol, iboralar, latifalar, topishmoqlar, tez aytishlarni ham o`qiydilar. Bo`limdan “Rustamxon” va “Alpomish” dostonlaridan parcha ham o`rin olgan.

4-sinf “O`qish kitobi” darsligidagi “Xalq og`zaki ijodi” bo`limini o`rganish uchun esa 28 soat ajratilgan. Bunda o`quvchilar xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo`shiqlar, bolalarning quvnoq o`yin-qo`shiqlari, hozirjavoblik, topqirlikni taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, sehr-jozibaga yo`g`rilgan rivoyatlarni o`qib-o`rganadilar. Bo`limning o`zi 5 qismdan iborat:

1- qism “Qo`shiqlar qanotida” deb ataladi. Bunda “Boychechak” ,“Oftob chiqdi olamga” , “Xo`p hayda” qo`shiqlari berilgan.

2- qism “Ertaklar mamlakatida” deb nomlanadi. Undan “Davlat” , “Ilm afzal” , “Ko`zacha bilan tulki”, “Ochko`z boy”, “Hiylagarning jazosi” , “Ziyrak uch yigit” ertaklari o`rin olgan.

3-qism “Adabiy ertaklar bo`lib, unda Anvar Obidjonning “Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak”, Shukur Sa’dullaning “Laqma it”, A.Abdurazzoqning “Baqa bilan taqa” ertaklari mavjud.

4-qism “Topishmoqlar”. Bunda 5 ta topishmoq va G`afur Gulomning ”Buni toping, qizlarim” she’riy topishmog`i berilgan.

5-qism ”Maqollar” bo`lib, bu yerda 11 ta maqol mavjud.

Boshlang`ich sinf ”O`qish kitobi” darsligidagi xalq og`zaki ijodiga mansub asarlar mundarijasi tahlilidan ham ko`rinadiki, o`quvchilar maktabga qadam qo`ygan davridanoq xalqning o`lmas merosidan, ma’naviyat sarchashmasidan, ya’ni og`zaki ijodi namunalaridan bahramand bol`r ekan. Bu asarlarni o`rganish jarayonida ularning tarbiyaviy jihatlariga diqat qilish, ulardan yosh avlodning insoniy fazilatlarini shakllantirishda unumli foydalanish esa har bir o`qituvchining eng mas’uliyatli vazifasi bo`lib qolaveradi.

II bob

Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi asarlaridan foydalanish.

2.1. Boshlang`ich o`quvchilarini ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda ertaklardan foydalanish.

Mustaqil Vatanimizda ta’lim-tarbiya ishlariga alohida e’tobor qaratilgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta’lim to`g`risida» gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo`nalishlarini belgilab bergan.

Boshlang`ich ta’lim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga ko`taradigan ijodkor shaxsni yaratishda mustahkam poydevor rolini o`ynaydi. Bunda

boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Ayniqsa, o'qish darslarida xalq og'zaki ijodining eng ommabop va qiziqarli bo'lgan janrlaridan bo'lgan ertaklarni o'quvchilar juda qiziqib o'qiydilar va o'rganadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari xalq og'zaki ijodi namunalaridan dastlab ertak bilan tanishadilar. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarining barchasiga ko'plab ertaklar kiritilgan. Jumladan, 1-sinf "O'qish kitobi"da "She'r va sichqon", "Maymun bilan duradgor", "Rostgo'y bola", "Ochko'z sichqon", "Aqlli bog'bon", "Hakka va uning bolalari" kabi ertaklar berilgan.

2-sinf "O'qish kitobi" darsligida 11ta bo'lim bor bo'lib, ularning har birida ertaklar mavjud. "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" bo'limida 13 ta ertak berilgan. O'quvchilar bo'limda "Maqtanchoq ayiq", "Nima totli?", "Baxtli bo'lish osonmas", "O'tinchi yigit bilan sher", "Urto'qmoq", "Oltin tuyoqli kiyik", "Oqko'ngil chol va xasis boy", "Snog'idan adashmadi", "O'ktam", "O'jar baliqcha", "Quyuncha va ayyor tulki" kabi ertaklar bilan tanishadilar.

3- sinf "O'qish kitobi" darsligida 13 bo'lim bo'lib, "Xalq og'zaki ijodi" bo'limida 4 ta ertak: "Botir mergan va chaqimchi", "Ahillik- ulug' baxt", "Halollik", "Donishmand yigit" va boshqa bo'limlarda yana 2 ta ertak o'rin olgan. Bular: "Barakalla, bo'tam", "Noahillik oqibati" ertaklaridir.

4-sinf "O'qish kitobi" darsligida 14 bo'lim bo'lib, "Xalq og'zaki ijodi" bo'limining "Ertaklar mamlakatida" 7 ta, "Adabiy ertaklar" qismida 3ta ertak, boshqa bo'limlarda 2 ta ertak berilgan. Jumladan, "Chaqimchiga mukofot", "Omonatga xiyonat", kabi ertaklar mavjud.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rganishda quyidagicha maqsadlar ko'zda tutiladi:

1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatan, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash.
2. O'quvchilarga xalq ertaklari materiallari bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida bilim berish.
3. O'quvchilarda ertak materiallarini o'qishga havas uyg'otish.

4. O`quvchilarning o`qish, og`zaki nutq malakalarini rivojlantirish.
5. Texnika vositalaridan foydalanishga o`rgatish.

Ertaklarni o`qish darslarida asosiy tarbiyaviy vazifa ularni barkamol inson ruhida shakllantirishga qaratiladi. Shuning uchun boshlang`ich sinflarda ertaklarni oq`ish orqali o`quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda vatanparvarlik, do`stlik, o`rtoqlik qadriyatlarini shakllantirish, jamoa ichida o`zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo`ylik, o`qishga ongli munosabatda bo`lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga alohida e`tibor berish lozim.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “Barcha ezgu intilishlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog`lom qilib o`stirish, ularning baxti-saodati, farovon kelajagini ko`rish, dunyoda hech kimdan kam bo`lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi”.

Mana shu maqsadni amalga oshirish uchun boshlang`ich sinflarda sinfda o`qish darslarida o`qib o`rganiladigan materiallar orasidan o`quvchilarni insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashni o`zining asosiy g`oyasi sifatida aks ettirgan bir qator ertaklarni tahlilga tortamiz.

Ma’lumki, inson barkamolligida ustuvor o`rin egallagan jihatlardan biri ilmi bo`lishga intilish, Bilimga chanqoqlik hisoblanadi. Shuning uchun o`quvchilarda 1-sinfdan boshlab bu mavzudagi ertaklar o`qitiladi. 4-sinfda esa “Ilm afzal” ertagi o`rganiladi.

Bu ertakni o`rganishdan asosiy tarbiyaviy maqsad o`quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, limning inson hayotidagi o`rnini ko`rsatish hisoblanadi.

O`qituvchi ertakni ifodali qilib o`qib va so`zlab berar ekan, undagi bu jihatlarga alohida e`tibor qaratadi. Ertak mazmuniga ko`ra bir cholning 8 nafar o`g`li va bir nafar qizi bo`lgan ekan. Qizi juda aqlli, o`z ziyrak zehni bilan akalaridan ajralib turar ekan. Bir kuni chol qiziga uning akalari ilm olishga qiziqmasligi, o`z vaqtlarini ot choptirib, shaharma-shahar kayf-usafo bilan o`tkazayotganliklaridan nolinibdi va bu xususda o`z qizidan maslahat so`rabdi. Qiz esa akalarini mehmonga chaqirib, ulardan “Ilm afzalmi yoki davlatmi?” deb so`rashni, oxirida uning o`ziga ham shu savolni berishini maslahat beribdi. Chol

o`g`illarini mehmonga chaqirib ularning har biriga yuqoridagi savolni beribdi.

To`ng`ich o`g`il otasisiga uning borligini, mol-davlatlari yetarli ekanligini, ilm olishga hojat yo`qligini aytibdi. Keyingi aka-ukalar ham pul-u mol-dunyo bo`lsa ilm nimaga kerak degan javobni beriblar. Chol ularning javoblaridan juda xafa bo`libdi. Oxirgi sakkizinchi o`g`il esa “Menga davlat emas, ilm afzal”,- debdi. U o`ziga mol-davlat tegvasligini, otasining ko`zi ochiqligida ilm olishga roziligini aytibdi. Shunda eshik orqasida akalari bilan otasining bahs-u javoblarini tinglab turgan qiz kenja kasining javobi to`g`riligini, lekin u ham limning nima uchun afzalligini aytolmaganligini aytib, bu savolga o`zi javob beribdi. U agar kishi ilmli bo`lsa, u aqlli, shirinsuxan, odobli bo`ladi, bunday odamlarni hamma hurmat qiladi, unga o`xshashga intiladi debdi. Hamda Ilmli odam vafot etsa odamlar donishmanddan ayrildik deb qayg`uradilar, davlatmand o`lsa, bir nafsiband odamdan qutuldik deyilar de quvonadilar, shuningdek, boy odam hamisha o`z mol-davlatidan xavotirda yashaydi, ilm esa eskirmaydi, chirimaydi, mol-mulk esa chirydi, sovuqda qotadi, olovda kuyadi, shuning uchun ilm afzal deb gapiribdi. Oqila qizni otasi va akalari jim eshitibdilar, qizning haqligini bilib, mehnat qilishga kirishibdilar. Chol esa kenja o`g`li va qizini o`qishga berib, murod-maqсадlariga yetibdilar. Mana shu ertakni o`qish darsida o`qituvchi har bir o`g`lining javobl;arini tahlil qilib, limning nima uchun afzalligini misollar bilan tushuntirib beradi. Ertak mazmuniga mos keladigan xalq maqollarini keltiradi. “Kuchli birni yengar, bilimli mingni yengar” maqolini izohlab beradi. Ilm egallashga yoshlikdan qunt qilish kerakligini, “Yoshlikda olingan bilim toshga o`yilgan naqshday” ekanligini, agar vaqt behuda o`tkazilsa, “So`nggi pushaymon, o`zingga dushman” ekanligini tushuntirib beradi. Hadislarda ham “Beshikdan qabrgacha ilm izla” deyilgani bejiz emasligini tushuntiradi. Ertak mazmuni asosida o`quvchilarning o`zidan hayotlarida o`zlari tanigan va bilgan ilmli odamlar haqida gapirib berishni so`raydi. Bu kabi usullarning qo`llanishi o`quvchilar qalbida bilimli bo`lishga ishtiyoq uyg`otadi. Ilm inson shuurini yoritishini bilib oladilar.

Har qanday ma`naviyatli inson avvalo rostgo`y, halol va mehnatsevar bo`lmogi lozim. O`zbek xalq ertaklarida ham ana shunday fazilatlatlar ulug`lanadi.

Yolgʻonchilik, baxillik va dangasalik kabi illatlar qoralanadi. Ana shunday mazmundagi ertaklar bosjlangʻich sinflarda oʻqib-oʻrganilganda, oʻquvchilarda anash insoniy fazolatlar kamol toptirilishiga alohida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq boʻladi. Chunki kichik yoshdagi oʻquvchilar juda taʼsirchan boʻladilar, ular ertaklarda berilgan ezguliklardan quvonadilar, aksincha yovuzliklardan nafratlanadilar. Ana shu jarayonda oʻquvchilarda komillik xislatlarini shakllantirish ayniqsa alohida oʻrin tutadi.

1-sinfda “Rostgoʻy bola” ertagini oʻqish darsida rostgoʻylikning bebaho xislat ekanligiga alohida urgʻu beriladi. Ertakda bir buyuk podshohning farzandsizlikdan azob chekkanligi va oxir-oqibat farzand olib saqlamoqchigi hikoya qilinadi. Podsho yurtning barcha bolalariga gul urugʻi tarqatadi va kimning guli eng chiroyli boʻlsa oʻshani farzand qilmoqchiligini aytadi. Oradan birmuncha vaqt oʻtgach oʻstirilgan gullarni koʻrish uchun shahar aylanadi. U koʻp bolalar va ular chiroyli qilib oʻstirgan gullar yonidan beparvo oʻtaveradi. Ammo koʻcha boshida gulsiz tuvak tutgan bolani koʻrib uni farzand qilib oladi. Chunki podsho tarqatgan gul urugʻi qaynatikgan edi. Ertak mazmunidan ham koʻrinadiki, rostgoʻylik insonda eng qadrlanadigan fazilatlardan biri ekan. Rostgoʻy insongina buyuk martabalarga erishadi. Buni oʻz rostgoʻyligi bilan podshoga farzand boʻlgan bola misolida ham koʻrish mumkin. Oʻqituvchi ushbu ertakni oʻqish darsida oʻquvchilarga quyidagi savollarni beradi:

1. Rostgoʻylik nima?
2. Siz yolgʻon gapirib turasizmi? Nima uchun?
3. Sizni aldashganmi? Bu holatda nimalarni his qilgansiz?

Oʻquvchilar ushbu soʻroqlarga javob berish davomida oʻzlarining rostgoʻylik haqidagi tushunchalarini qay darajada kengligini bilib oladilar. Ularda oʻz fikrlarini mustaqil bayon etish koʻnikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, oʻqituvchi ertak mazmuniga mos maqollarni aytishni oʻquvchilardan soʻraydi. Ular “Boshingga qilich kelsa ham rost soʻzla”, “Shirin yolgʻondan achchiq haqiqat afzal”, “Toʻgʻri gapning toʻqmogʻi bor” kabi maqollarni aytadilar va oʻqituvchi yordamiad bu maqollarning mazmunini bilib oladilar. Ertakni poʻqish jarayonida

o`qituvchi rostgo`ylik insonni buyuk martabalarga olib chiqishini tushuntiradi. Agar rostgo`y bola ham podshoga farzand bo`lishni xohlab boshqa urug`dan chiroyli gul undirganda edi, u ham boshqalarga o`xshab podshoning nazariga tushmagan va unga farzand bo`lmagan bo`lardi. Undagi rostgo`ylik podsh tomonidan ulkan qadrlanib, uni o`ziga farzandlikka qabul qilishiga sababch bo`ldi. Mana shu tarbiyaviy jihatlarga diqqat qilish o`quvchilarni rostgo`y bo`lishga, yolg`onchilikdan qochishga undaydi.

Eng buyuk insoniy fazilatlarda biri bu- kishilarga yaxshilik qilish, ezgu ishlarni amalgam oshirishdir. Chunki, yaxshilik hech qachon yerda qolmaydi. Yaxshilik tagida esa savob ishlarni amalga oshirish yotadi. Savob ish qilish ostida ta`magirlikdan qochish, ochko`z bo`lmaslik kabi fazilatlar yotadi. Shu kabi tushunchalarni o`quvchilarda shakllantirishda “Ochko`zboy” ertagi katta ahamiyat kasb etadi. Bu ertakda o`tinchilik bilan kun ko`ruvchi qashshoq cholning oyog`i singan o`rdakka beg`araz yordami va yaxshiligi evaziga mukofotlangani, uning qo`shnisi baxil boyning esa ta`magirligi va ochko`zligi tufayli halokatga yo`liqqani ajoyib tarzda o`z ifodasini topgan. O`quvchilar chol timsolida yaxshi insonni ko`radilar. U kambag`al bo`lsa ham ezgu ishlarni qiladi, o`rdakni so`yib yeyishni yoki sotib yuborishni o`ylamaydi, uni mehr bilan parvarish qiladi va buning uchun o`rdak tomonidan mukofotlanib boyib ketadi. Ochko`z boy esa avvalo kambag`al qo`shnisining boyiganiga hasad qiladi. Boyish niyatida sog` o`rdakni mayib qilib parvarishlaydi, buning orqasidan boyishni ko`zlaydi, yani ta`magirlik qiladi. Niyati yomonligidan o`rdak tomonidan jazolanadi, ya`ni tarvuz ichidan chiqqan ajdarho uni xotini bilan qo`shib yutib yuboradi. O`quvchilarga ertak g`oyasi to`g`ri ochib berilsa, ular bu ertakd juda ko`p insoniy fazilatlar va qusurlar aks etganining guvohi bo`ladilar. Savob ishning qanday bo`lishini, yaxshilik qaytishini, ochko`zlik insonni halokatga yetaklashini bilib oladilar. Cholning “Savob bo`ladi” degan gapining mag`zini chaqib olishga harakat qiladilar. Shu o`rinda o`quvchilarga hurmatli yurtboshimizning “Savob ishni har kuni va har kim qilishi kerak”, - degan fikrlari ham keltirilib va izohlab o`tilsa, ertak o`qish darsining samaradorligi yanada katta bo`ladi. Ertakdagi cholga xos bo`lgan fazilatlar va

boyga xos bo'lgan xususiyatlar Klaster usulida ko'rsatilsa va ular taqqoslansa, sen kimga o'xshashni istarding savoli berilsa va javobi sharhlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga ertakda berilgan har bir ezgu fazilatga o'zlari bilgan odamlardan misollar keltirish topshirilsa, ularda ana shunday fazilatli insonlarga havas uyg'onadi. Ularning o'zlari ham shunday bo'lishga harakat qiladilar. Zero, ertakni o'qitishdan ham maqsad shu edi aslida.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan har qanday ertak zahirida o'quvchilarni ma'naviy yetuk inson ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. O'qituvchi esa ana shu g'oyani ilg'agan tarzda o'z darslarini uyushtirsa va o'tkazsa o'z pedagoglik vazifasini ado etgan bo'ladi. Zero, ma'naviyati yuksak, har tomonlama rivojlangan komil shaxsgina yurtimiz kelajagini buyuk qila oladi.

2.2.Xalq maqollarini o'qish orqali o'quvchilarda ma'naviy barkamollikni shakllantirish.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni-bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan – bir yo'li ta'lim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm – fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy – axloqiy kamolot sari etaklaydi.

Maktab ta'lim-tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda uning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish o'qituvchining o'z burch, vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Barkamol insonni, ya'ni, avvalo, o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi shaxsni tarbiyalashga ham shu yerda zamin qo'yiladi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, „Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bol'masligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan

ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.“ (1.4.)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasida xalq maqollaridan foydalanishning ham alohida o'rni bor. Zero, o'quvchilar o'quv dasturiga ko'ra „O'qish kitobi“ darsligi sahifalari orqali bir qator maqol va latifalarni o'qib-o'rganadilar. DTS talablaridan kelib chiqib ularni yod oladilar. Mana shu jarayonda maqollardan o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim vosita sifatida foydalanish juda muhim hisoblanadi. Chunki, Prezidentimiz aytganlaridek, „... har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz.“ Yurtboshimiz aytgan omillardan biri boshlang'ich sinf „O'qish kitobi“ darsliklarida berilgan xalq maqollari va latifalari sanaladi.

Maqol xalqning ko'p asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha – qavlun- gapirmoq, aytmoq, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil etadi. Demak, maqol xalq ommasining muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalari, hukmi va tavsiyalarini mujassamlashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifoda va iboralardan iborat.

Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar o'xshashliklar, umumiyliklar mavjud.

Maqol qator xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi. Chunki xalq doston va ertaklari, afsona va rivoyatlari, naql va latifalari voqelikni epik planda rang-barang obrazlarning xatti-harakati ketinmalari orqali aks ettirsa, maqollqr voqelikni xalqning bevosita ana shu

voqealik haqida xulosalar; hukmlari orqali aks ettiradi.

Maqollarda ibratli fikr aytiladi. Biroq har qanday ibratli fikr maqol bo'lavermaganidek, ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun muayyan shartlar mavjud. Ana shunday shartlardan biri maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar moboynidagi hayotiy tajribasiga sinalgan bo'lishligidadir. Hayotiy tajribada sinalgan fikr esa kishini ishontira oladi. Ikkinchi sharti shuki, maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxslargagina emas, balki umuminsoniy xarakter kasb etishida ko'zga tashlanadi. Nihoyat, uchinchi sharti-ibratli, sinalgan umuminsoniy fikr ixcham, mukammal badiiy shaklga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Mana shuning uchun ham xalq maqollari juda ham sekinlik bilan yaratilish va unutilish xususiyatiga ega. Maqollardagi bu xususiyat jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy strukturasi, bu strukturaning barqarorlik yoki beqarorlik darajasi bilan bog'liq holda amal qiladi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bilan shartlangan holda maqollar mazmunida turli darajada o'zgarishlar-torayish yoki kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o'ziyoq maqolning jamiyat hayoti xalq turmushi bilan bevosita bog'lanishda ekanligini ko'rsatadi. Demak, maqollar xalq hayotini, uning o'tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush darajasini o'rganishda nodir manbalik vazifasini o'taydi. Darhaqiqat, maqollar turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xalqning etik va estetik normalarini etiqodiy tasavvurlarini, maishiy turmushi va mehnat tarzini, sevgi va nafratni, orzu va intilishlarini ob'ektiv baholashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham genial rus yozuvchisi L.N.Tolstoy "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman" deb yozganida to'la haqli edi.

Maqol xalq hayoti, orzu-intilishlari va dunyoqarashini ko'p asrlik tajribalarida sinovdan o'tkazib aks ettirishi tufayli kundalik turmushimizda katta g'oyaviy tarbiyaviy ro'l o'ynaydi. Chunki, maqolda aks etgan voqea-hodisa yo keskin tasdiq etiladi, yo inkor qilinadi. Demak, har bir maqol kishiga izchil g'oyaviy yo'nalish beradi, undagi ideallarning yuksalishiga ko'mak beradi. Haqiqiy xalq maqolida mehnatkash omma manfaatlari, ideallari aks etar ekan,

maqolga murojaat etgan har bir kishi o'z xalqi va vatanigga ilk mehr bilan qarashga o'rganadi, adolat va ozodlik, mardlik va bahodirlik, insonparvarlik va do'stlik, tinchlik va mehnatsevarlikka intiladi.

Boshlang'ich sinflarda maqollarni o'rganish orqali o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish bilan bir qatorda ular orqali o'quvchilar ongiga turli insoniy fazilatlarni singdiriladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

1) maqollar tajribada sinalgan fikrni tasdiqlaydi.

Masalan: "Hunarli kishi xor bo'lmas"(1-sinf), "Hunar bol'sa qo'lingda, non topilar yo'lingda" (3-sinf), «Yolg'iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham dong'i chiqmas"(4-sinf) maqollarida hunari orqasidan kishining yaxshi turmush kechirishi hamda kishilar orasidagi ahillikning ahamiyati ifodalangan;

2) tabiatda sodir bo'lgan voqea va hodisalarni jamiyat hayotiga (ko'chma ma'noda) boshlaydi. Inson uchun uning zarurligi ochiladi. Masalan:

Bog'ni eksang bog' bo'ladi,

Botmon dahsar yog' bo'ladi.

Boqimsiz bog' tog' bo'ladi.

Yurak-bag'ring dog' bo'ladi;

3) Maqol mazmunida narsalarning o'ziga xos xususiyati, mohiyati ochiladi va bu inson hayotiga ham bog'liq holda, ma'no jihatidan tarbiya mazmunini beradi. Masalan: «Do'stsiz boshim-tuzsiz oshim» (4-sinf), «Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni» (1-sinf);

4) Maqollardagi muhokama va tafsilot inson, jamiyat va ayrim predmetlarning mohiyatini eslatish bilan birga, o'quvchilar fikrini uyg'unlashtiradi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: "Ona yurti- oltin beshiging" (4-sinf), "Erinchoqlik boshga balo keltirar" (4-sinf).

Maqollar badiiylikka ega bo'lib, ma'lum ohangda o'qiladi, bu esa maqol mazmunining o'quvchi ongiga oson etib borishini ta'minlaydi. Maqollardagi ohangdorlik-ayrim undosh tovushlvr, ayrim so'zlarning takrorlanishi yoki qofiyalanishi tufayli tug'ilgan. Masalan:

Aql yoshdan-odob-boshdan (4-sinf)

Oltin-kumushning eskisi bo`lmas,
Ota-onaning bahosi bo`lmas.(3-sinf)

Ammo ba'zi maqollar birgina gapdan iborat bo`ladi. Masalan: «Ko`p o`qigan ko`p bilar» (3-sinf), “Farzand –belning quvvati” (3-sinf).

Axloq, odob bahsidagi maqollarni tahlil etish orqali xalqning hukmi ifoda etuladiki, bu maqollarni o`rganish orqali o`quvchilar asrlar davomida avloddan-avlodga o`tib kelayotgan eng oliyjanob fazilatlar haqida fikrga ega bo`ladilar. Jumladan, “Ochko`zlik yomon odat, Keltirar u falokat” maqoli mazmuni 1-sinfda “Ochko`z sichqon” ertagi mazmuniga bog`lab o`rgatiladi. Bunda ochko`zlik insonni halokatga eltuvchi narsa ekanligi, nafsibalolik oxir-oqibat kulfat keltirishi tusuntiriladi. O`quvchilar bunday xislatga ega bo`lmasligi uqtiriladi. Ertak mazmunidan xulosa chaqartiriladi.

Ilm-fanni egallashga, hunar olishga yo`naltiruvchi maqollar o`quvchilarning bilim olishga bo`lgan ishtiyoqini oshiradi, kasb-hunarga bo`lgan qiziqishni kuchaytiradi. Zero, komillik belgisi eng avvalo ilmlilik va biron-bir hunarnining mohir egasi bo`lish bilan ham belgilanadi. “Bilimdan ortiq boylik yo`q”, “Bilgan o`qir, bilmagan to`qir”, “Aqlning qayrogi-bilim” (1-sinf), “Bilim-baxt keltirar”(2-sinf), “Bilagi zo`r birni yiqar, bilimi zo`r mingni”, “Ko`p o`qigan ko`p bilar”, “Ilm olish- nina bilan quduq qazish”, “Bir yigitga qirq hunar oz”, “Hunar o`rganish uchun ham hunar kerak” (3-sinf), “Olim bo`lsang, olam seniki”, “Hunar bo`lsa qo`lingda, non topilar yo`lingda”, “Ilm-aql chirog`i”(4-sinf) kabi maqollarni o`rganish jarayonida o`quvchilarga ilm olishning afzalliklari, bilim hamisha insonni yuksaklikka eltuvchi vosita ekanligini, shuning uchun o`quvchilar hozirdanoq bilimolishga qunt bilan kirishishlari zarurligi uqtiriladi. Ilmi va bilimi orqasidan yurtimizda e`zoz topayotgan kishilar misolida bu maqollarning mazmuni ustida ishlanadi.

Maqollarni anglatgan ma`nolarini ochishda yil fasllari, har-xil mavsumlar va hunarlarning nomlarini ham hisobga olish foydalidir. Ular o`quvchilarning lug`at boyliklarini oshiradi, so`zlarni ko`plab o`zlashtirishlariga olib keladi. O`qituvchi maqol mazmunini so`zlashdan oldin, uni ifodali o`qib beradi. Shundan

so`ng o`qish texnikasini yaxshi egallagan o`quvchilarning ikki-uchtasi maqolni o`qiydi.

Ayrim o`quvchilardan maqol mazmuni so`raladi. O`qituvchi maqol yozilgan kartonni doskaga iladi va o`qish texnikasini yaxshi egallamagan 2-3 o`quvchiga ifodali o`qitadi. O`quvchilarning ifodali o`qishdagi ayrim nuqsonlar izohlanadi, so`z maqollar mazmunan tahlil etiladi. Masalan: o`qituvchi «Yaxshidan bog` qoladi, Yomondan dog`» maqolini o`qishda quyidagilarga amal qiladi:

1. Birinchi misradagi yaxshidan so`zri ikkinchi misradagi yomondan so`zlaridan farqli ohang jihatidan) ravishda o`qiladi.
2. O`qituvchi maqolni o`qish jarayonida, birinchi misradan so`ng qisqa pauza qiladi.
3. Ifodali o`qish jarayonida yaxshi, yomon, bog`, dog` so`zlarini doskaga yozib boradi. Shu talablarga asosan, o`rganilgan maqol o`quvchilarda ifodali o`qish uchun zamin tayyorlaydi. Shuningdek, yaxshi insonlar, ezgu fazilatlar egasi doimo xalq orasida ehtirom bilan tilga olinishi, u keying avlodlarga ham o`z yaxshi fazilatlari bilan o`rnak bo`lishi tushuntiriladi. Chunki bog` hamisha yashnab turadigan, o`z ne`matlari bilan barchani xushnud qiladigan maskandir. Yomonlik ham unutilmaydi, binobarin u o`zidan og`riqli iz qoldiradi. Bu og`riq inson qalbida dog` misoli bo`ladi. Shuning uchun har bir inson faqat yaxshilik qilishga, ezgu ishlarni amalga oshirishga harakat qilishi lozimligi haqida o`quvchilar bilan suhbat olib boriladi. Yomon ishlardan chekinish zarurligi uqtiriladi. O`qituvchi o`quvchilarga: “Sizni qanday esalashlari istaysiz? Buning uchun nimalar qilishingiz lozim?” kabi savollar bilan murojaat qilinadi. O`quvchilar fikri diqqat bilan tinglanib, yaxshi fazilatlar misollar bilan ular ongiga singdirib boriladi. Shu o`rinda o`quvchilar orasidan ikki o`quvchi doskaga chiqariladi va ulardan bitiga yaxshi fazilatlarni, ikkinchisiga yomon xususiyatlarni doskaga yozish topshiriladi. Bunda quyidagi ustun yozilishi mumkin:

Yaxshi fazilalatlarni

Yomon xususiyatlar

Rostgo`ylik

yolg`onchilik

Mehnarsevarlik	dangasalik
Kamtarlik	ishyoqmaslik
Odoblilik	manmanlik
Xushmuomalilik ..	qo`pollik, qo`rslik...

Keyin o`qituvchi har bir yozilgan so`zga o`quvchilarning o`zlari biladigan, yod olgan maqollarini ayyitishni va shu orqali ularning ma`nosini izohlashni so`raydi. Masalan; Rostgo`ylik- “Boshingga qilich kelsa ham, rost so`zla” yoki “Kamtarga kamol-manmanga zavol” kabi maqollar aytialdi va ma`nosi izohlanadi.

Ko`rinadiki, xalq maqollari boshlang`ich sinf o`quvchilarida insoniy fazilatlarni tarbiyalashda, ularda yuksak ma`naviyatni shakllantirishda, kelajakda barkamol inson bo`lib yetishishlarida juada katta rol o`ynaydi.

2.3. Boshlang`ich sinflarda latifalarni o`rganish orqali o`quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish.

Latifa xalq og`zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo`lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyadir. Latifa atamasi arabcha latif va lutf so`zlaridan olingan bo`lib, nozik, ko`p ma`noli so`z, mayin kinoya, qochirimlardan iborat bo`lgan kulgili hikoyani anglatadi. Latifalar xalq o`rtasida «afandi» deb ham yuritiladi. Latifalar yagona qahramon (Nasriddin Afandi) bilan bog`liq holda yaratiladi, ixcham syujetga ega bo`ladi. Latifalarga xos voqelikni badiiy aks ettirish tamoyillari hayotiy uydirmalar, so`z o`yini va kinoyalarga asoslangan. Latifalarning syujet tuzilishi ixcham bo`lib, bir yoki ikk epizod birikmasidan tashkil topgan. Syujetni tashkil etuvchi epizodlar fosh etuvchi yoki muloyim hazil anglatuvchi kulgu yatadi va tanqidiy estetik vazifani ado etadilar. Latifalarning eng muhim xususiyatlaridan biri uning hamma vaqt hayot bilan hamnafas, hamqadam borishidir.

1-sinf „O`qish kitobi“ darsligida «Uyqum qochib ketdi», «Tuya eshikdan si?maydi» kabi latifalar keltirilgan bo`lsa, 3-sinfda «Latifalar» mavzusi ostida bir

necha latifalar berilgan. Latifa matni ustida ishlashda ham hikoya matni ustida ishlashda qoʻllangan usullardan foydalanish mumkin. Lekin bunda latifa janrining oʻziga xos jihatlariga ham ahamiyat qaratish lozim.

Boshlangʻich sinflarda latifalar ustida ishlaganda ularda tanqid qilingan illatlar haqida alohida toʻxtalib oʻtish, bu illatlarning mohiyati ochilgan holda oʻquvchilarga yaxshi fazilatli boʻlish kerakligini uqtirib oʻtish kerak. Bu esa oʻqituvchidan juda katta pedagogik mahoratni talab qiladi. Xususan, 1-sinfda „Tuya eshikdan sigʻmaydi“ latifasida Afandining aldoqchi kishiga munosabatini izohlash orqali uning oʻta aqlliligiga, soʻzamol ekanligiga diqqat qilinadi. Afandini yosh bola bilib, uning nonini tortib olmoqchi boʻlgan kishi haqida suhbatlashiladi. Bunda bu kishi sizga yoqdimi? Unga qanday munosabatda boʻlish mumkin? Afandining javobidan qoniqdingizmi? Nima uchun? savollari beriladi. Oʻquvchilar bunday kishilardan nafratlanish kerakligini, u kishi aldoqchilik yoʻli bilan yosh bolaning nonini yemoqchi boʻlgani salbiy holat ekanligini bilib oladilar. Hayotda shunday kishilar ham borligini, ammo ularga aldanib qolmaslik lozimligini, xuddi Afandiday aql-farosat bilan himoyalaniş zarurligini oʻzlashtirdilar. Bu latifani oʻqish orqali oʻquvchilarda aldoqchi kishilarga qarshi nafrat va aldoqchilikning yomon illat ekanligi haqidagi tasavvurlar paydo boʻladi. Bu esa ularning kelgusida ana shunday illatlardan saqlanishiga yordam beradi.

3-sinfda ham „Xalq ogʻzaki ijodi“ boʻlimida uchta latifa berilgan boʻlib, ularni oʻqib-oʻrganish jarayonida ham oʻquvchilarda latifada tanqid ostiga olingan illatlardan saqlanish, aksincha bunday illatlarga qarshi kurashish tuygʻulari uygʻotiladi. „Hushtakka tugma“, „Afandi mergan“, „Gap bitta“ latifalarining ham qahramoni Afandidir. Har bir latifada uning turli insoniy qirralari namoyon boʻladi. Oʻqituvchi ana shu qirralarning mohiyatini oʻquvchilar koʻz oldida shakllantirsagina, latifalarni oʻqishdan koʻzlangan tarbiyaviy maqsadga erishilgan boʻladi. Masalan, „Hushtakka tugma“ latifasida maqtanchoqlik kulgiga olinadi. Unda podshoning hovliqma vaziri dunyoda men oʻqib-oʻrganmagan ilm-hunar, men yecholmaydigan masala yoʻq deb maqtanchoqlik qiladi. Uning bu maqtanchoqligini Afandi topqirlik bilan oʻziga koʻrsatib qoʻyadi, yaʼni Afandi

cho`zib bitta hushtak chaladi-da, shunga to`rtta tugma qadab berishini so`raydi. Bu bilan maqtanchoq vazirni mot qiladi. Ushbu latifa o`qilganda maqtanchoqlikning yomon illat ekanligiga alohida urg`u beriladi. Uning mohiyatiga mos ravishda „Maqtanma g`oz, hunaring oz“, „Kamtarga kamol, manmanga zavol“ kabi maqollardan ham foydalaniladi. O`quvchilarda o`zlari guvoh bol`gan maqtanish holatlari so`raladi. Ular o`z fikrlarini ifoda etishlari jarayonida esa maqtanchoqlikka munosabati shakllantiriladi. Shunday illatlardan qochish kerakligi uqtiriladi. Zero, kamtarlik insinni yuksaklikka eltishi, maqtanchoqlik esa uning zavoliga saba bo`lishi mumkinligi tushuntiriladi.

3-sinfda „Afandi mergan“ va „Gap bitta“ latifalarini o`qib-o`rganishda ham Afandining xatti-harakatlariga baho berish orqali o`quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlar shakllantirilishiga e`tibor beriladi.

Yuiqoridagilardan ko`rinadiki, latifalarni o`qish orqali boslang`ich sinf o`quvchilari ko`pgina illatlarni kuzatish orqali insoniy fazilatlarining mohiyatini bilib oladilar, unga hayotlari davomida rioya qilsihlari zarurligini anglaydilar.

Demak, boslang`ich sinf o`quvchilarini barkamol inson ruhida tarbiyalashda latifalarning ham alohida o`rni borligini, ularni o`rganish darslarida o`qituvch buni hisobga olishi zarurligini e`tirof etish kerak.

Xulosa

Bugun ta`lim tizimida hayotga tadbiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo`lib yetishmog`iga qaratilgan.

2010-yilning “Barkamol avlod “ yili deb elon qilinishi ta`lim tarbiya tizimiga ham bir qator vazifalarni yukladi zero, yurtboshimizning “Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz, kelajagimiz, ular bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir” drb aytgan so`zlari ham yoshlar tarbiyasining naqadar muhimligini ko`rsatadi.

Boshlang`ich ta`lim uzluksiz ta`limnig murakkab, o`ziga xos, shu bilan birga, mustaqil va majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang`ich talim DTS

ta'lim mazmuni negizini o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini hamda o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni o'zida ifodalaydi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslariga qo'yiladigan talablardan biri-o'quvchilarni ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishdir. Shu tufayli o'qish darslarida o'qib o'rganiladigan har qanday asar ana shu vazifani amalga oshirishga qaratilmog'i zarur. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan xalq og'zaki ijodi asarlari o'quvchilarda turli insoniy fazilatlarni shakllantirishga, ularda ahloqiy sifatlarni tarkib topdirishda alohida o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darslaridan o'rin olgan xalq og'zaki ijodi asarlarining har bir janrida ma'lum bir tarbiyaviy jihat o'z aksini topgan bo'ladi. Mana shu jihatlarga e'tibor berish, ularni o'quvchilar ongiga yetkazib berish o'qituvchidan zo'r mahorat talab etadi. Ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda ertak, doston, maqollarni o'qitishdan maqsad, o'quvchilarning tez, ongli, ifodali va ravon o'qish malakalarini takomillashtiribgina qolmasdan, yana ularda xalq og'zaki ijodi asarlari mazmuni asosida xulosalar chiqarishga, insoniy fazilatlarni shakllantirishga o'rgatish ham hisoblanadi. Xususan, o'quvchilar ertak, doston, maqollar o'qish davomida mehnatsevarlik, kamtarlik, ahillik, vatanparvarlik, ilm olishga intilish, jonli va jonsiz tabiatga muhabbat, o'zidan kichiklarga g'amxo'rlik, kattalarga hurmat, mehr-oqibatlilik va shu kabi boshqa insoniy fazilatlar xususida tushunchaga ega bo'ladilar. Bu turli mavzudagi asarlarni o'qish jarayonida ularning dunyoqarashlari kengayadi, idroklari chuqurlashib boradi.

Xususan, ertaklarni o'qish orqali o'quvchilarda o'zaro ahillik, ilm olishga intilish, savob ish qilish tuyg'ulari tarbiyalanadi, bir-birlarini hurmat qilishga, haqqiga hiyonat qilmaslikka, hamjihat bo'lishga o'rgatiladi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda maqollar ham alohida o'rin tutadi.

Maqollarda o'z ifodasini topgan xalq tajribasi va xulosalarini o'quvchilar

ongiga yetkazishda turli usullardan foydalanadi.

Boshlang'ich sinf darsliklaridan o`rin olgan latifalar ham o`quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda, ularda turli insoniy fazilatlarni shakllantirishda juda katta o`rin tutadi. Zero, latifalarda o`z aksini topgan g`oyani tushunish, uning ma`nosin idrok etish jarayoni o`quvchilardan ziyraklikni, zukkolikni talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda xalq og`zaki ijodi asarlarini o`qitish orqali o`quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish yo'llaridan biri ular matni ustida ishlash jarayoni hisoblanadi. B matn ustida bajariladigan turli, reja tuzib shu asosda qayta hikoyalash, lug'at ustida ishlash, turli topshiriqlar bilan tanlab o`qish kabilar bu vazifani amalga oshirishda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, xalq og`zaki ijodi asarlarini o`qish darslarida turli yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanib, interfaol metodlarni qo'llash orqali ham o`quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Xususan, bu asarlarni o`rganish jarayonida "Klaster", "Aqliy hujum", "Ven diagrammasi", "Guruhlar bilan ishlash", "6x6x6" kabi metodlar bu o`rinda alohida ahamiyatga egadir.

Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar tufayli darsning shakli va mazmuni ta'sirchanligi, samaradorligi, baholash mezonlari ham o'zgardi. Dars samaradorligini oshirish mezonlaridan biri-darslarda interfaol usullarni qo'llashdan iborat.

Bugungi kun o`qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to'g'ri qabul qilib o'z o`quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o'tkazish uchun avvalo o`qituvchining o'zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo'lishi zarur. Shundagina bunday o`qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlarga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash- bugungi hayotning o'tkir talabi // O'zR Prezidentining intervyusi, “Xorazm haqiqati” gazetasi, 2012, 16-may soni.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir// Boshlang'ich ta'lim, 2011, 1-son, 2-3-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
6. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.)- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standart i// Boshlang'ich ta'lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar.
8. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
9. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
10. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent, 2010.
11. Abdullayeva Q. va b. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
12. Abdullayeva Q., Shodmonova Sh., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
13. Anorboyev A. Badiiy asar- ma'naviy boylik// Boshlang'ich ta'lim, 2008, 6-son, 18-bet.

14. Avezov S. Milliy istiqloq g'oyasi mezonlari // Boshlang'ich ta'lim, 2006, 12-son, 10-bet.
15. Farsaxonova D. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning muhim jihatlari // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 6-son, 6-7-betlar.
16. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
17. Jabborov Sh. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim, 2011, 2-son, 28-29- betlar.
18. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor.- Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
19. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. O'qish kitobi. 4- sinf uchun darslik.- Toshkent, "Yangiyul Poligraph servise", 2007.
20. Matchonov S., G'ulomova X., Dolimov Z. 4-sinfda o'qish darslari.- Toshkent: "Yangiyul Poligraph servise", 2007.
21. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , "Yangiyul Poligraph servise", 2008.
22. Mirzayev I. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rganish.- Toshkent: "O'qituvchi", 1979.
23. Nazarova H., Anorboyeva A. O'qish darsi- nafas olami // Boshlang'ich ta'lim, 2008, 11-son, 5-bet.
24. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
25. Ro'ziyeva G., Qorayev Z. Folklordan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 3-son, 6-bet.
26. Safarova R., Musayev U., Musagev P., Yusupova P., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. –Toshkent, 2005.
27. Sattarova M., Sharipova R. Mukammallik yo'lida // Boshlang'ich ta'lim, 2008, 3-son, 14-15-betlar.

28. To`raqulov X., Boltayeva A. Milliy-ma`naviy qadriyatlarni shakllantirish// Boshlang`ich ta`lim, 2008, 11-son, 2-3-betlar.
29. Toshpo`latov Z. Odob mavzusiga hamohang// Boshlang`ich ta`lim, 2009, 7-son, 17- bet.
30. Umarova M., Hakimova Sh. O`qish kitobi. 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyoti-matbba ijodiy uyi, 2008.
31. Umarova M., Hakimova Sh. O`qish darslari (3-sinf o`qituvchilari metodik qo`llanma)- Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyoti-matbba ijodiy uyi, 2008.
32. Yo`ldasheva Sh. Kitobda mujassam sehrli hikmat// Boshlang`ich ta`lim, 2008, 11-son, 4-bet.
33. Vohidova N. Milliy g`urur ruhida tarbiyalash (Xalq og`zaki ijodi materiallari asosida) // Boshlang`ich ta`lim, 2009, 14- son, 2-3- betlar.
34. Zuhra Ilyos qizi. Ma`naviyati yuksak avlod- Vatan ishonchi // Boshlang`ich ta`lim, 2009, 10- son, 21- bet.
35. G`afforova T. , Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O`qish kitobi. 1- sinf uchun darslik – Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2008.
36. Internet ma`lumotlari: www.ziyonet.uz

**Al-Xorazmiy nomli UrDU Pedagogika fakulteti "BT va STI" ta'lim yo'nalishi
bitkazuvchisi Bekchanova Ozodaning "Xalq og'zaki ijodi materiallari asosida
boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash"
mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

T A Q R I Z I

Komil insonni voyaga yerkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, mustahkam poydevor rolini o'taydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshadi. Oqish darslarida o'quvchilar xalq og'zaki ijodi asarlari bilan ham yaqindan tanishadilar. Mana shu asarlarni o'qish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardandir. O.Bekchanovaning ushbu bitiruv-malakaviy ishida ana shu masalaning yoritilishi ishning dolzarbligini belgilaydi.

Talaba ishning mazmunini mantiqiy izchillikda yoritgan. Unda mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, o'rganilish darajasi, metod va metodologik asoslari ko'rsatilgani holda, boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligidagi xalq og'zaki ijodi asarlari mundarijasi va ularni o'rganishning nazariy-metodik asoslari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi asarlari: ertaklar, xalq maqollari va latifalarni o'rganish jarayonida ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash yo'llari masalalari bayon etilgan. Har bir janrni o'qish darslarida o'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish yo'llari misollar bilan izohlangan. Talaba tomonidan ko'rsatilgan bu yo'llar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik jihatdan katta yordam bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Ish xulosalangan. Ishni yozish davomida ko'plab ilmiy-metodik manbalar hamda adabiyotlarni o'qib o'rgangan, ularga munosabat bildirgan.

Ish savodxonlik bilan yozilgan. Unda talaba ta'lim jarayonida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ko'rsatgan.

Men O.Bekchanovaning ushbu bitiruv-malakaviy ishini shunday ishlar oldiga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi deb hisoblayman va uni bakalavr darajasini olish uchun ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:


U.n., dots. M.Jumaniyazova

**Al-Xorazmiy nomli UrDU Pedagogika fakulteti "BT va STI" ta'lim yo'nalishi
bitkazuvchisi Bekchanova Ozodaning "Xalq og'zaki ijodi materiallari asosida
boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash"
mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Hozirgi davrda barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir. Shu sababli har tomonlama yetuk, erkin fikrlovchi, go'zal xulqli, barcha axloqiy fazilatlarga ega barkamol shaxsni kamol toptirish boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganiladigan xalq og'zaki ijodi asarlari ham alohida o'rin tutadi. O'qish darslarida xalq og'zaki ijodi asarlari ustida ishlash metodikasiga doir metodik tavsiyanomalar mavjud bo'lsa-da, ulardan foydalanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash yo'llarini belgilash o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri edi. Shu nuqtai mazkur masalaga bag'ishlangan ushbu bitiruv-malakaviy ishi mavzusi dolzarblik kasb etadi.

Talaba ishning mohiyatini mantiqiy izchillikda ochib bergan. Bitiruv-malakaviy ish kirish, II bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan.

Kirishda mavzuning dolzarblilgi, maqsad va vazifalari, o'rganilish darajasi, metod va metodologik asoslari haqida fukr yuritilgan.

Ishning I bobida boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligidagi xalq og'zaki ijodi asarlari mundarijasi va ularni o'rganishning nazariy-metodik asoslari ikki qismga ajratilgan holda o'rganilgan.

II bobda boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi asarlari: ertaklar, xalq maqollari va latifalarni o'rganish jarayonida ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash yo'llari haqida so'z borgan. Unda o'quvchilarda turli insoniy fazilatlarni shakllantirish yo'llari va usullari xususida fikr yuritilgan. Ishda o'z aksini topgan masalalar yuzasidan chiqarilgan xulosalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiya bo'lib xizmat qilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Ishning xulosasida umumiy xulosalar qisqa va aniq holda bayon qilinadi.

Talaba ishni yoritish davomida ko'plab ilmiy-metodik manbalar hamda adabiyotlarni o'qib o'rgangan. Bular ishning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan o'rin olgan.

Talaba ishni sodda va ravon tilda savodxonlik bilan yozgan. O'qish jarayonida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llay olish xususiyatini namoyon eta olgan. Ishning qo'lyozma hajmi sahifani tashkil qiladi.

Men O.Bekchanovaning ushbu bitiruv-malakaviy ishini shunday ishlar oldiga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi deb hisoblayman va uni bakalavr darajasini olish uchun ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



Otajonova Y.
VPKQTMOI o'qituvchisi